



GLOBALLASHUV JARAYONIDA BOLALARDA YUZAGA KELADIGAN MUOMMOLAR VA ULARNI PSIXOLOGIK OMILLARI

Nartashova Ziyoda Mamaraimovna

*Jizzax viloyati Jizzax shahar MMTBga qarashli 1-sonli umumta'lim
maktabining amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Globallashuv jarayoni zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, u bolalar tarbiyasi va ularning ijtimoiylashuvi jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida bolalarda yuzaga kelayotgan muammolar, xususan, madaniyatsizlik, milliy qadriyatlardan uzoqlashish, internet va ommaviy axborot vositalarining salbiy ta'siri, ijtimoiy befarqlik kabi holatlar yoritilgan. Shuningdek, bu muammolarning oldini olishda ijtimoiy pedagogikaning o'rni, pedagog va ota-onalar hamkorligi, maktab va mahalla tizimining ahamiyati kabi ijtimoiy pedagogik omillar tahlil qilingan. Maqolada bolalar ongiga sog'lom ijtimoiy qadriyatlarni singdirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash orqali globallashuvning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yo'llari muhokama etilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, bolalar tarbiyasi, ijtimoiy muammolar, ijtimoiy pedagogika, qadriyatlar, tarbiya, axborot makoni, madaniyatlar to'qnashuvi, ota-ona, maktab, mahalla.

XXI asr insoniyat tarixida tub burilish davri sifatida namoyon bo'ldi. Texnologik taraqqiyot, kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi, iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiyalarning kengayishi globallashuv deb nom olgan murakkab va ko'p qirrali jarayonni vujudga keltirdi. Globallashuv jarayoni dunyoning turli hududlaridagi mamlakatlarni, xalqlarni, madaniyat va qadriyatlarni bir-biriga yaqinlashtirar ekan, u, shubhasiz, inson hayotining barcha sohalariga, jumladan, yosh avlod tarbiyasi va rivojlanishiga ham kuchli ta'sir o'tkazmoqda. 1Globallashuv — bu faqatgina iqtisodiy yoki texnologik jarayon emas. Bu, ayni



paytda, jamiyatda ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar, shaxsiy ong va madaniy identifikatsiyaning o'zgarishiga olib keladigan, ko'lamli ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham bu jarayon nafaqat kattalar, balki bolalar ongiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki bolalar — bu hali ongli tanlov qila olmaydigan, ma'naviy tayanchlar hali to'liq shakllanmagan, tashqi ta'sirlarga nisbatan eng ta'sirchan ijtimoiy guruhdir. Ularda globallashuvning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, salbiy oqibatlari ham ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, globallashuv sharoitida o'smirlar va yosh bolalar orasida turli xil ijtimoiy va psixologik muammolar keskinlashib bormoqda. Jumladan, identitet inqirozi, milliy qadriyatlar va an'anaviy madaniyatga befarqlik, chet el madaniyatiga haddan ortiq qiziqish, axborotga qaramlik, psixologik beqarorlik, ijtimoiy izolyatsiya, agressivlik, depressiv holatlar va boshqa shu kabilar tobora ko'proq uchramoqda. Bularning barchasi bolalar tarbiyasi va ijtimoiy rivojlanishida dolzarb muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda. Albatta, globallashuv faqat salbiy jihatlardan iborat emas. Bu jarayon orqali dunyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro hamkorlik, madaniy almashinuv, bilim va texnologiyalar ayirboshlash imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq ayni paytda har bir xalq va millat, xususan, har bir oila va pedagogik tizim globallashuvning salbiy ta'sirlarini yumshatish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlodni sog'lom ruhda tarbiyalash yo'lida faol harakat qilishi zarur bo'lmoqda. Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda ijtimoiy pedagogikaning o'рни va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Ijtimoiy pedagogika — bu faqat ta'lim tizimi doirasida amal qiluvchi fan emas, balki jamiyat, oila, maktab, mahalla va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladigan kompleks tarbiyaviy tizimdir³. Aynan shu tizim bolani o'z muhitida tarbiyalash, ijtimoiylashtirish, shaxsiy kamolotiga erishish, axloqiy va madaniy qadriyatlarni shakllantirish vazifasini bajaradi. Globallashuv sharoitida esa ijtimoiy pedagogik yondashuv yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy



bolalar an'anaviy oilaviy muhitda emas, balki raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, virtual muloqot va gibridd madaniyatlar sharoitida voyaga yetmoqda. Ular ko'proq ekran orqali muloqot qilishga odatlangan, real hayotdagi ijtimoiy rollarni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bunday vaziyatda bolaning jamiyatga moslashuvi, o'zligini anglash jarayoni murakkablashadi. Bu holat esa, o'z navbatida, bola shaxsida turli ziddiyatlar, psixologik nomutanosibliklar va ijtimoiy deviant xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, pedagoglar, psixologlar, ijtimoiy ishchilar va ota-onalar birgalikda harakat qilib, globallashuv sharoitida bolalarni sog'lom ijtimoiy muhitda tarbiyalash strategiyasini ishlab chiqishlari lozim. Bundan tashqari, globallashuv jarayoni bolalarning madaniy identifikatsiyasiga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining bosimi ostida o'smirlar o'z milliy qiyofalarini yo'qotishlari, o'zlarini boshqa millat vakillari bilan solishtirib, o'z madaniyatiga past nazar bilan qarashlari mumkin. Bu esa bolalarda past o'zini baholash, hayotdan norozilik, agressivlik va befarqlik kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Shunday ekan, ijtimoiy pedagogika vositasida bolalarda milliy g'urur, madaniy o'zlik, tarixiy xotira va milliy o'ziga xoslikni mustahkamlash dolzarb ahamiyatga ega. Shuningdek, globallashuv oilaviy tarbiya uslublarini ham sezilarli darajada o'zgartirdi. Bugungi kunda ko'plab ota-onalar ish bilan band, farzandlariga yetarlicha e'tibor bera olmayapti. Ba'zilar esa zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni zamonaviylik belgisi sifatida baholab, bolalariga nazoratsiz internetdan foydalanish imkonini bermokda. Bu esa bolaning ruhiy dunyosiga, xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada bolalar real hayotdagi vaziyatlarga moslashishda qiynaladi, ijtimoiy aloqa ko'nikmalari susayadi va yolg'izlik hissi kuchayadi. Ta'lim tizimi ham globallashuv bosimi ostida turibdi. O'quv dasturlarining g'arb tajribasiga yo'naltirilishi, milliy an'analar va qadriyatlarning ikkinchi darajaga tushirilishi, chet tillarining ustuvorlik kasb etishi bolalarda o'zligiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shunday



vaziyatda ijtimoiy pedagogika nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy, ma'naviy ma'rifiy vosita sifatida faoliyat yuritishi lozim.

U bolalarni jamiyatga foydali, o'zligini anglagan, mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, globallashuv — bu zamon talabidir, uni to'xtatib bo'lmaydi. Ammo globallashuvning oqimida yo'qolib ketmaslik, balki undan ijobiy foydalanish, yosh avlodni bu jarayonga tayyorlash va himoya qilish har bir jamiyatning, ayniqsa, ta'lim tizimining, pedagogik hamjamiyatning muhim vazifasi hisoblanadi. Shu maqsadda, ushbu maqolada globallashuv sharoitida bolalarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolar, ularning sabablari, ko'rinishlari va ularni bartaraf etishdagi ijtimoiy pedagogik yondashuvlarning dolzarbligi chuqur tahlil qilinadi. Maqola zamonaviy ijtimoiy-pedagogik nazariyalar, amaliy tajribalar va milliy qadriyatlar asosida tayyorlanadi.

Globallashuv zamonaviy davrning eng murakkab va muhim ijtimoiy jarayonlaridan biri hisoblanadi. U insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida jamiyatning barcha qatlamlariga, xususan, yosh avlodga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Texnologik yuksalish, raqamli axborot vositalarining keng qo'llanilishi, madaniy, iqtisodiy va siyosiy chegaralarning nisbatan ochiqligi natijasida bolalar ilgari hech qachon uchramagan darajadagi axborot, g'oya va madaniyatlar oqimiga duch kelmoqda. Bu esa ular ruhiyati, ijtimoiylashuvi va shaxsiy kamoloti uchun yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, globallashuvning bolalar ongiga ko'rsatgan ta'siri haqida so'z borganda, xorij tajribasi va O'zbekiston sharoitidagi holatni solishtirish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda globallashuv bolalar tarbiyasi va ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlarga olib kelgan. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda bolalar erta yoshdan boshlab texnologiyadan foydalana boshlaydi, xalqaro til – ingliz tilini o'zlashtirishga



yoʻnaltiriladi, koʻp madaniyatli muhitda oʻsadi. Bu mamlakatlarda globallashtirish jarayoni pedagogik tizimga integratsiyalashgan boʻlib, u yerda bolalarga zamonaviy texnologiyalarni boshqarish, kreativ fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, global muammolarga masʼuliyat bilan yondashish koʻnikmalari shakllantiriladi. Masalan, Finlandiya taʼlim tizimida globallashtirishga mos tarzda transmilliy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlar uygʻunlashtirilgan⁶. Maktab dasturlarida ekologiya, inson huquqlari, madaniy xilma-xillik kabi mavzular asosiy oʻrin tutadi. Bunda oʻqituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy koʻmakchi va shaxsiy rivojlanish yoʻlboshchisi sifatida faoliyat yuritadi. Natijada bolalar globallashtirishni ongʻli ravishda qabul qilishadi va shu bilan birga, oʻz milliy ildizlariga hurmat bilan qarashadi.

Oʻzbekiston sharoitida esa globallashtirish jarayoni kechayotgan boʻlsa-da, uning bolalar tarbiyasiga taʼsiri borasidagi masalalar hali toʻliq oʻrganilgan, tizimlashtirilgan va pedagogik jarayonga moslashtirilgan deb boʻlmaydi. Soʻnggi yillarda mamlakatda raqamli taʼlim platformalarining joriy etilishi, xorijiy tillarga eʼtibor kuchayishi, xalqaro dasturlar orqali chet el tajribasini oʻrganish imkoniyatlarining kengayishi ijobiy oʻzgarishlarga sabab boʻlmoqda. Biroq bu bilan birga, globallashtirishning salbiy oqibatlari ham oʻzini koʻrsatmoqda. Jumladan, bolalarda gʻarb ommaviy madaniyatiga haddan ortiq qiziqish, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, ota-onalar bilan muloqotning susayishi, milliy qadriyatlarga befarqlik, ijtimoiy xulq-atvor buzilishi kabi holatlar kuchaymoqda. Koʻplab ota-onalar va pedagoglar hali ham globallashtirishning mazmuni va taʼsir mexanizmini chuqur tushunmasdan, uni yoki toʻliq inkor etadi, yoki uni tanqidiy baholamasdan qabul qiladi. Bu esa bolalar ongʻida chalkashlik, madaniy identitetda muammolar, oʻzligini anglashda zaiflik keltirib chiqaradi. Oʻzbekistonda globallashtirishga mos tarzda taʼlim tizimini yangilash yoʻnalishida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.



Prezidentning tegishli qarorlari asosida zamonaviy fanlarni chuqur o'rgatish, maktabgacha ta'limdan boshlab raqamli savodxonlikni oshirish, chet tillarini erta yoshdan o'rgatish, xalqaro standartlar asosidagi dasturlarni joriy etish boshlangan. Shu bilan birga, "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fani orqali o'zbekona qadriyatlar targ'ib qilinmoqda. Ammo amaliyotda bu ikki yo'nalish — zamonaviylik va milliylik — ko'pincha uyg'unlashmasdan, bir-biriga qarama-qarshi ko'rinishda qabul qilinmoqda. Bu esa, ayniqsa, o'smirlar ongida identitet inqirozini keltirib chiqarmoqda. Xorij tajribasida esa globallashuv va milliy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlashga katta e'tibor qaratiladi. Misol uchun, Yaponiya maktablarida har bir darsda milliy madaniyat elementlari bo'ladi, bolalar an'anaviy urf-odatlar va zamonaviy fanlar uyg'unligida tarbiyalanadi. Shu orqali bola o'z ildizini anglaydi, ammo global dunyoda raqobatlasha oladigan salohiyatga ega bo'lib ulg'ayadi. O'zbekistonda esa bu muvozanat hali to'liq shakllanmagan. Aksincha, ba'zi hollarda milliylik zamonaviylikka to'siq sifatida ko'riladi yoki zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishda milliy muhit inobatga olinmaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, globallashuv jarayoni bolalar hayotiga o'zining murakkab va ko'p qirrali ta'sirini o'tkazmoqda. Bu jarayonni na to'xtatish, na cheklash mumkin. Ammo uning oqibatlarini ijobiy yo'nalishga burish, bolalarni bu jarayonga moslashishga o'rgatish, ularning ruhiy, ijtimoiy va ma'naviy salomatligini ta'minlash esa ijtimoiy pedagogikaning muhim vazifasiga aylanmoqda. Buning uchun esa xalqaro tajriba va mahalliy shart-sharoitlarni chuqur tahlil qilgan holda, integratsiyalashgan, milliy qadriyatlarga asoslangan, ammo global muhitga mos metodikalar ishlab chiqilishi lozim.

MAVZU YUZASIDAN TAKLIFLAR

1. Globallashuv sharoitida bolalar tarbiyasini milliy va zamonaviy yondashuvlar asosida uyg'unlashtirish: Maktab va oilada olib borilayotgan tarbiya



ishlari xalqaro standartlarga mos tarzda modernizatsiya qilinishi zarur, ammo bu milliy qadriyatlar va urf-odatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

2. Ijtimoiy pedagogik xizmatlarni kuchaytirish: Har bir umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy pedagog va psixolog faoliyatini tizimli asosda yo'lga qo'yish, ular orqali bolalarning globallashuv oqibatida yuzaga kelgan psixologik va ijtimoiy muammolarini aniqlash va bartaraf etish lozim.

3. Ota-onalar va pedagoglar uchun trening va malaka oshirish dasturlarini joriy etish: Globallashuvning bolalar ruhiyati va xulq-atvoriga ta'sirini tushuntirishga qaratilgan seminar, trening va vebinarlar orqali ota-onalar va pedagoglarning bilim va salohiyatini oshirish kerak.

4. Milliy identitet va madaniy o'zlikni mustahkamlash: Ta'lim tizimida milliy tarix, madaniyat, urf-odatlar va milliy qahramonlar haqida chuqur ma'lumot beruvchi, bolalarda milliy g'ururni shakllantiruvchi darslik va qo'shimcha o'quv materiallarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

5. Raqamli texnologiyalarni tarbiyaviy maqsadlarda yo'naltirish: Internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalarning nazoratsiz emas, balki nazoratli, ma'rifiy va tarbiyaviy mazmunda ishlatilishini ta'minlash, maxsus "pedagogik kontent" yaratish zarur.

6. Xalqaro tajribalardan foydalanish: Bolalar ijtimoiy moslashuvi, madaniy identiteti va psixologik barqarorligini ta'minlash rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalari (Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya) asosida borasida milliy model ishlab chiqilishi kerak.

7. Mahalla va jamoatchilikni jalb etish: Bolalarni tarbiyalashda faqat maktab va oilaga tayanmasdan, mahalla, jamoatchilik tashkilotlari, NNTlar ishtirokini kuchaytirish orqali ijtimoiy tarbiyani kompleks tarzda yo'lga qo'yish lozim.



8. Psixologik sogʻlomlashtirish dasturlarini ishlab chiqish: Globallashuv oqibatida yuzaga keladigan stress, izolyatsiya, depressiya kabi holatlarning oldini olish uchun maktablarda psixologik treninglar, emotsional intellektni rivojlantiruvchi mashgʻulotlar oʻtkazilishi lozim.

9. Oʻzbekistonda globallashuv va bolalar ijtimoiylashuvi boʻyicha ilmiy tadqiqotlarni koʻpaytirish: Ushbu yoʻnalishda maxsus grantlar ajratish, ilmiy izlanishlar olib borish va natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

10. Media savodxonlikni oshirish: Bolalarni va ularning ota-onalarini media kontentni tanqidiy tahlil qilish, yolgʻon va haqiqatni ajrata olishga oʻrgatuvchi oʻquv dasturlarini taʼlim jarayoniga kiritish tavsiya etiladi.

XULOSA

Bugungi globallashuv sharoitida bolalar tarbiyasi va ijtimoiy shakllanishi oldida yangi, murakkab vazifalar turibdi. Ushbu jarayon bir tomondan bolalarga cheksiz imkoniyatlar, zamonaviy bilimlar va texnologiyalar bilan tanishish imkonini berayotgan boʻlsa, boshqa tomondan ularning ruhiyati, qadriyat tizimi va ijtimoiy munosabatlariga tahdid solayotgan omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Ayniqsa, milliy identitet, axloqiy meʼyorlar va oilaviy qadriyatlarning zaiflashuvi globallashuvning salbiy jihatlaridan biri boʻlib, bu jarayon bolalarda ijtimoiy moslashuv va shaxsiy barqarorlik muammolarini keltirib chiqarmoqda. Xorijiy davlatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, globallashuv jarayonining ijobiy jihatlarini maksimal darajada samarali foydalanish uchun taʼlim va tarbiya tizimlari zamonaviylik va milliylik uygʻunligiga asoslanishi lozim. Oʻzbekiston sharoitida ham bu yoʻnalishda bir qator islohotlar olib borilayotgan boʻlsa-da, hali bu borada tizimli, uzviy va ijtimoiy-pedagogik yondashuvni shakllantirish dolzarb masala boʻlib qolmoqda. Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida bolalarning sogʻlom rivojlanishini taʼminlash, ularni axborot xurujlari, madaniy assimilyatsiya va ijtimoiy izolyatsiyadan himoya qilish uchun taʼlim, oilaviy tarbiya va



jamoatchilik hamkorligida samarali ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarni yaratish zarur. Bolalar ongida milliy g'urur, madaniy identitet va global tafakkurni uyg'unlashtirish esa ijtimoiy pedagogika fanining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak. Shu bois bu mavzu ustida chuqur ilmiy izlanishlar olib borish, xalqaro tajribani o'rganish va milliy sharoitga moslashtirilgan amaliy choralarni ishlab chiqish muhim vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176
2. Nishonova S.N. Ijtimoiy pedagogika. – T.: TDPU, 2017. – 256 b.
3. To'raqulova M. Globallashuv va ta'lim muammolari // Pedagogik ta'lim. – 2021.
4. G'ofurova N. Bolalarda shaxsiy identitetni shakllantirishning psixologik pedagogik asoslari. – T.: Fan, 2019.